



# MATEMATIKA VA INFORMATIKA

[matinfo.jspi.uz](http://matinfo.jspi.uz)

MATHEMATICS AND INFORMATICS

МАТЕМАТИКА И ИНФОРМАТИКА

№ 3  
2021

## **TALABALARING MATN BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK ORGANAYZERLAR**

Abduvohidova Mavluda G'aybulla qizi  
*Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI,*  
*1- bosqich magistranti.*

E-pochta: [abduvohidovamavluda971@gmail.com](mailto:abduvohidovamavluda971@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada tayanch kompetensiya turlaridan biri matn (axborot bilan ishlash kompetensiyasi qisman ko'rib chiqilgan. Matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishli metodlarning turlari ko'rsatilgan. Taqdimot talabarga berilgan mavzuni garfiklar yordamida tizimli shakllantirish orqali yuritiladi. Muallif grafikli metod atamasini birinchi marta bergen.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, grafik organayzerlar, Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali, T-jadvali, Venn diagrammasi.

O'zbekistonda ta'limga tizimi jadal sur'atlar bilan tub islohotlar bilan yangilanayotgan bir paytda unga mos o'sib kelayotgan yosh avlod ta'limga tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadr sifatida bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ta'limga tarbiya tizimini tubdan isloq qilish, uni o'tmishdagi an'anaviy ta'limga tizimidan holi bo'lgan holda hamda rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga yetkazish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'limga tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Ta'limga sifatini oshirish maqsadida so'ngi yillarda ta'limga barcha tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishni tashkil etilmoqda. Boshqa fanlar qatorida, ayniqsa, matematika fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalananib, talabalarga matematik tushunchalarni hayotiy bog'liqliklar asosida o'qitish va o'rgatishni tashkil qilish bugungi kunda ta'limga asosiy omildir.

Kompetensiya (lot.competo - erishyapman, munosibman, loyiqlaman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

O'zbekiston Respublikasida ta'limga uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalardan biri shakllantiriladi:

**Matn (axborotlar) bilan ishlash kompetensiyasi** — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan

samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda matn bilan ishslash kompetensiyani rivojlantiruvchi bir qancha metodlar mavjud. Bularidan eng samaralilari grafik organayzerlardir.

*Grafik organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali tashkil etish vositasi. Grafik organayzerlar talabalarga taqdimot bilan, matn bilan, chizma bilan ishslash texnikasini shakllantirishga yordam beradi. Grafik organayzerlar ma'lumotning turiga ko'ra quyidagi tartibda qo'llaniladi:*

*Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqeа, hodisa, mavzular) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'rgatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali.*

*Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, Venn diagrammasi.*

*Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalaشتirish usullari va vositalari: "Nima uchun?", "Baliq skeleti", "Piramida", "Nilufar guli" sxemalari, "Qanday?" ierarxik diagrammasi, "Kaskad" tarkibiy - mantiqiy sxema.*

Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo`lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o`ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

Venn diagrammasi - grafik ko`rinishda bo`lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetlarni (ko`rinish, fakt, tushuncha) taqqoslash, tahlil qilish va o`rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo`ladi. Metodning maqsadi: bu metod grafik tasvir orqali o`qitishni tashkil etish shakli bo`lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko`rib chiqish, ularning umumiyy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

*Toifalar bo'yicha - ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas. Bitta kichik guruhi toifalarga ajratish boshqa guruhi ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni farq qilishi mumkin.*

*B/B/B jadvali – Bilaman/Bilishni xohlayman/Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mavzu bo'yicha "nimalarni bilasiz?" va "nimani bilishni xohlaysiz?" degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limini to'ldiradilar. Mavzuni tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar va 3 bo'limni to'ldiradilar.*

Konseptual jadvali - o'rganilayotgan hodisa ikki yoki undan ortiq jihatlar bo'yicha fikrlarni taqqoslashni ta'minlaydi. U individual ravishda rasmiylashtiriladi. Belgilangan vaqt ichida u tartibda (juftlik bilan) to'ldiriladi, sabablar chap tomonda, aksincha o'ng tomonda - qarama-qarshi fikrlar, omillar va boshqalar yoziladi. Bu jadval tanqidiy kuzatishni rivojlantiradi.

Baliq skeleti: bir qator muammolarni tavsiflash va hal qilishga imkon beradi, tizimli fikrlash, tizimlashtirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Chizish qoidalari: (shaxsiy yoki kichik guruhlarda) yuqori "suyak" kichik muammoni anglatadi, pastki qism esa bu kichik muammolar mavjudligini isbotlaydi. Ular kichik guruhlarga qo'shilishadi, taqqoslashadi va rasmlarini to'ldiradilar.

Nilufar guli sxemasi – muammoni yechish vositasidir. O'zida nilufar guli ko'rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to'qqizta katta to'rtburchaklar tashkil etadi. Tizimli fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, grafikli metodlar talabalarga har tomonlama fikrlash imkonini beradi. Xususan, talabalar mavzu haqidagi asosiy tushunchalarni ko'z o'ngida sxematik tarzda namoyon qila oladi, mustaqil va tez fikrlay oladi, muammoni qo'ya olish, uni tizimga solish imkoniga ega bo'ladi. Demak, garfikli metodlar yordamida talabalar yoki o'quvchilar berilgan mavzuni zerikishlarsiz, noodatiy tarzda va albatta, matn orqali o'rganish imkoniga ega bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J.G'. Yo`ldoshev,S.A.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent. "O`qituvchi" 2004 y.
2. Matematika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar modulli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.
3. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
4. [www.new.tdpu.uz](http://www.new.tdpu.uz)